



YOSHLAR-KELAJAK BUNYODKORI

Jumanova Umida Alijon qizi

Farg'ona viloyati "Kelajak Liderlari" klubi a'zosi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6379505>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-mart 2022

Ma'qullandi: 10-mart 2022

Chop etildi: 14-mart 2022

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati va kelajak egalariga yaratib berilayotgan imkoniyatlar to'g'risida bayon qilingan.

KALIT SO'ZLAR

Kelajak bunyodkori, Yoshlar, Yoshlarga oid davlat siyosati, Ilm-fan, Imkoniyatlar

Mamlakatimizning kelajagi bo'lmish yoshlarimizni har tomonlama yetuk, bilimli, salohiyatli shaxs, komil inson sifatida tarbiyalash masalasiga bugungi karantin kunlarida ham o'ziga xos tarzda, zamonaviy usullar asosida yondashilmoqda, ularning barcha huquq va erkinliklari, imkoniyat va manfaatlarini himoya qilishda tashkiliy-huquqiy asoslar zamon bilan hamnafas takomillashib bormoqda. Zero, masofaviy ta'lim, onlayn rejimida uzluksiz tashkil etilgan holda yoshlarning bilim olish huquqini ta'limda ta'minlaganining o'zi O'zbekistonning bugun yoshlarga berayotgan ta'lim-tarbiya va ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik, e'tiborning amaliy ifodasidir.

Yangi O'zbekistonni, albatta, yoshlar bilan birga quramiz. 2020-yil yoshlarga oid davlat siyosatida tub burilish yili bo'ladi. Shavkat Mirziyoye

Yoshlarning yuksak darajalarga ko'tarilishi barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu borada ayniqsa quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan: iqtidorli, lekin oliygohda kantrak asosida o'qish imkoniyati bo'lmagan yoshlarimizni qo'llab quvvatlash bo'yicha yangi tizim yaratish, maktablarda o'quvchilarni kompyuterdan shunchaki foydalanuvchi emas balki undan daromad topadigan mutaxassislar qilib tayyorlash. Shuningdek yosh oilalarning ijtimoiy ximoyasini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero BMT ning "Yoshlar strategiyasi"da takidlanganidek "yoshlar siymosida eng qimmatli va o'ta muhim resurslar mujassam topgan bo'lib, unga har qancha investitsiya kiritisa arziydi, chunki bu sarmoyalar bir necha barobar Ziyoda bo'lib qaytadi"

Xususan mamlakatimizda yoshlarga kelajak bunyodkorlariga katta e'tibor berish maqsadida O'zbekiston



Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi O'RQ-361-sonli "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida qonun imzolandi. Unga ko'ra yoshlarni qo'llab quvvatlash nazarda tutilgan bo'lib quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi.

Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy printsiplari

Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

- ochiqlik va shaffoflik;
- yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda yoshlarning ishtirok etishi;
- yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;
- ma'naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarning ustuvorligi;
- yoshlarning kamsitilishiga yo'l qo'yilmasligi.

Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;
- yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash;
- yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish;
- yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash;
- yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish;

- yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga,

milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash;

- yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalariidan himoya qilish;

- yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish;

- iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish;

- yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- yoshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- yosh oilalarni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish;

- yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

Yoshlar — har qanday jamiyatning ertasi. Ular tom ma'noda, O'zbekistonning eng muhim katta boyligi, bebaho xazinasini hisoblanadi. Zero, yangi O'zbekiston



yoshlari — kelajagimiz va istiqbolimiz poydevoridir.

Bugun yurtimizda ularning zamonaviy ilm-fan va yuqori texnologiyalarni mukammal egallashi uchun barcha kuch va imkoniyatlar ishga solinayotgani, xususan, Prezident va ijod maktablari tashkil etilayotgani zamirida katta ma'no mujassam. Hozir biz zamonaviy talablar asosida jihozlangan, barcha shart-sharoitlarga ega o'quv binolarida ta'lim olayotgan yoshlarning yutuqlari bilan haqli ravishda faxrlana olamiz.

Yoshlarimiz uchun, ayniqsa, qizlarimizning yana-da ilmi bo'lishlari uchun, Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasiga xotin-qizlarni o'qishga qabul qilish uchun 30 foiz maqsadli kvota ajratish masalasi ko'tarilgan bo'lsa, endilikda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-fevraldagi qarorida Ichki ishlar organlari xodimlari farzandlariga davlat oliy ta'lim muassasalari hamda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiyasi va Davlat bojxona qo'mitasining oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun imtiyozlar belgilangan edi. Jumladan, terrorizm va jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda jamoat xavfsizligini ta'minlash chog'ida halok bo'lgan yoki olgan tan jarohati tufayli nogiron bo'lib qolgan ichki ishlar organlari xodimlarining

farzandlariga tavsiyanoma asosida: Oliy ta'lim muassasalariga kirishda tanlovsiz, belgilangan qabul parametrlaridan tashqari davlat granti asosida o'qishga kirish imtiyozi berilgandi. Bu imtiyoz yoshlar uchun kutilmagan e'tibor: ularda vatanparvarlik va ota-onasiga nisbatan yana-da g'urur va iftixor baxsh etganining guvohimiz. Chunki, mazkur tavsiyanoma va taqdimnomalarning amal qilish muddati uch yil deb belgilab ham hikmatli qadamdir.

Xulosa: Shuni ishonch bilan aytishim mumkinki bundan keyin ham yoshlarni har tamonlama yetuk insonlar etib tarbiyalash, ularni bilimli ziyoli dunyo mamlakatlari yoshlari bilan tengma teng raqobat qila oladigan insonlar qilib tarbiyalash uchun bundanda eng imkoniyatlar yaratilib prezidentimiz boshchiliklarida keng islohotlar amalga oshiriladi.

Bu borada yaratilayotgan imkoniyatlar albatta bizni yanada izlanishga mana shunday imkoniyatlardan unumli foydalanib yurtimiz rivoji va salohiyatiga hissa qo'shishimizga poydevor bo'lib xizmat qiladi. Bunday imkoniyatlardan so'ng mamlakatimizni dunyo hamjamiyatidagi o'rnini mustahkamlashimiz va ota bobolarimiz ruhini shod qilishimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi".
2. yuz.uz
3. lex.uz
4. uznature.uz
5. xs.uz